Palvanbayev Umiddbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqaq tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budjet jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025).....	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	1617
Murodov Sardor Nurall o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxona ishlab chiqarish potentsialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari.....	1686
Sattorova Nasiba G'anjon qizi	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri.....	1690
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	1694
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o'rne va roli.....	1701
Xudoyorova Mehrangiz Murodovna	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rne: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlar.....	1710
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati	1714
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar	1719
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1725
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda ta'limning ahamiyati.....	1731
M.Ostanova	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari	1736
Baxtiyorov Umid Kaxramon o'g'li	
Перспективы и инновационные подходы в методологии управления денежными потоками	1741
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	1746
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Mintaqaviy turizmni rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlashda turizm infratuzilmasining o'rne va ahamiyati (xorazm viloyati timsolida)	1753
Doschanov Tangirbergen Doschanovich, Ruzmetova Shoira Shuxrat qizi	
Turizm destinatsiyalarida turistik mahsulotni yaratish jarayonining tahlili.....	1759
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarkibiy tahlili.....	1764
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi	
Davlat organlari ichki audit tuzilmalari tomonidan samaradorlik auditini tashkil etish masalalari.....	1773
Nasimov Fazliddin Sirojevich	



SAMARQAND VILOYATIGA JALB QILINGAN INVESTITSİYALAR TARKIBIY TAHLILI

Bektemirov Abdumalik Bektemirovich

SamISI i.f.d., professor

abdumalikbektemirov.57@gmail.com

Ergasheva Aziza Xasan qizi

SamISI magistri

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda Samarqand viloyatida investitsiya faoliyatining holati, asosiy yo'nalishlari va rivojlanish dinamikasi chuqur tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida investitsiyalar hajmi, ularning moliyalashtirish manbalari va iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha taqsimoti o'rganilib, asosiy kapitalga yo'naltirilgan mablag'larning o'sish sur'atlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning hajmi, tarkibi va eng ko'p investitsiya kiritilayotgan hududlar hamda tarmoqlar aniqlangan. Tadqiqotda Paul Krugman va J. Dunning kabi olimlarning nazariy yondashuvlari asosida investitsion jozibadorlikning hududiy omillari ochib berilgan. Yakunda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, respublika miqyosida ilg'or yondashuvlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, xorijiy sarmoya, investitsiya muhiti, asosiy kapital, hududiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, moliyalashtirish manbalari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsion siyosat.

Abstract: This scientific paper presents a comprehensive analysis of the state, main directions, and development dynamics of investment activity in the Samarkand region. The study explores the volume of investments, their sources of financing, and their sectoral distribution within the economy. It also analyzes the growth rates of funds directed toward fixed capital based on statistical data. Additionally, the paper identifies the volume and composition of foreign investments, along with the regions and sectors receiving the highest investment inflows. The research highlights the regional factors of investment attractiveness, drawing on the theoretical approaches of scholars such as Paul Krugman and John Dunning. As a result, practical recommendations aimed at improving the investment climate are developed, along with forward-looking proposals at the national level.

Key words: investments, foreign investment, investment environment, fixed capital, regional development, economic growth, sources of financing, foreign direct investment, investment policy.

Аннотация: В данной научной работе представлен углублённый анализ состояния, ключевых направлений и динамики инвестиционной активности в Самаркандской области. В исследовании изучены объёмы инвестиций, источники их финансирования и распределение по отраслям экономики. Также на основе статистических данных проанализированы темпы роста вложений в основной капитал. Кроме того, были определены объёмы и структура иностранных инвестиций, а также регионы и сектора, в которые инвестируется больше всего. В работе раскрыты региональные факторы инвестиционной привлекательности на основе теоретических подходов таких ученых, как Пол Кругман и Джон Данинг. В заключение разработаны практические рекомендации по улучшению инвестиционного климата и предложены передовые подходы на уровне республики.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, основной капитал, региональное развитие, экономический рост, источники финансирования, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная политика.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar har qanday hududning iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda mintaqaviy rivojlanish masalasi alohida e'tiborga olinib, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, resurs imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlariga mos investitsiya siyosatini yuritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Samarqand viloyati — o'zining geografik joylashuvi, transport infratuzilmasi, tarixiy-madaniy merosi va ishlab chiqarish salohiyati bilan respublika iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, turizm kabi ko'plab tarmoqlarga sarmoyalar jalb etilayotgani iqtisodiy faoliyat ko'lamining kengayishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda aholi turmush sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarkibini tahlil qilish, ularning manbalari, yo'naltirilgan sohalari, dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini chuqur o'rganish zamonaviy iqtisodiy tahlilning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tahlil orqali investitsion siyosatning samaradorligi baholanadi, mavjud muammolar aniqlanadi va kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarni jalb qilish va ularning tarkibiy tahlilini o'rganish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning ilmiy ishlari hududiy rivojlanish, sarmoya oqimining samaradorligini oshirish va investitsion muhitni takomillashtirish kabi masalalarni yoritadi.

O'zbekistonlik iqtisodchilar investitsiyalarni hududiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladilar. Xususan, iqtisod fanlari doktori R.J. Qosimovning ta'kidlashicha, "investitsiyaviy faoliyatni hududlar kesimida chuqur tahlil qilish orqali ularning iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish imkoniyatlari aniqlanadi". Muallif hududiy sarmoyaviy muhitni baholashda sektorlararo muvozanat, ijtimoiy infratuzilma darajasi va transport-infratuzilma holatini asosiy omillar sifatida ajratadi [1].

Iqtisodchi olim D.M. Jo'rayev o'z tadqiqotlarida "investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish nafaqat iqtisodiy o'sish, balki aholi bandligini oshirish, sanoatni modernizatsiyalash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ham olib keladi", deya qayd etadi. U, xususan, viloyatlar kesimidagi investitsion siyosatni tahlil qilishda ishlab chiqarish tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari va xomashyo bazasini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [2].

Shuningdek, YUNKTAD (UNCTAD) tavsiyalariga tayanib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda huquqiy barqarorlik, valyuta konvertatsiyasi hamda investorlar huquqlarining kafolatlanganligi asosiy omil sifatida ko'riladi [8].

Xalqaro miqyosda investitsiyalarni hududiy rivojlanish omili sifatida o'rganishda mashhur iqtisodchi P. Krugmanning hududiy iqtisodiyot nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Krugman investitsiyalarning hududiy jamlanishini asosan transport xarajatlari, ishlab chiqarish klasterlari va mehnat resurslari bilan bog'laydi. Unga ko'ra, "investitsiyalar axborot, infratuzilma va ishchi kuchining mavjudligi bo'yicha afzalliklarga ega bo'lgan hududlarga yo'naltiriladi" [5].

Shuningdek, J. Dunning tomonidan ilgari surilgan "Eklektik paradigma" nazariyasiga ko'ra, investorlar o'z kapitalini joylashtirishda uchta asosiy omilga — egallangan afzalliklar (Ownership), joylashuv afzalliklari (Location) va ichkilashtirish afzalliklari (Internalization) ga e'tibor qaratadilar. Ushbu nazariya asosida viloyatlarning investitsion jozibadorligi ularning geografik joylashuvi, mehnat resurslari, infratuzilmasi va huquqiy muhiti bilan belgilanadi [4].

Yevropa Ittifoqi hamda Jahon banki ekspertlari esa hududiy investitsiya siyosatini baholashda "Doing Business" reytingi, investorlar uchun ochiqlik darajasi va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni hal qiluvchi omillar sifatida qayd etadilar [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida investitsiyalarning makroiqtisodiy va mikroiktisodiy xususiyatlarini o'rganuvchi klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, jumladan, Paul Krugmanning hududiy iqtisodiyot nazariyasi, J. Dunningning eklektik paradigma modeli hamda O'zbekiston olimlarining hududiy investitsion siyosatga oid ilmiy ishlari asos qilib olindi.



Tadqiqot natijalari investitsion siyosatni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, tahliliy yondashuvlar asosida boshqa viloyatlarda ham investitsiya strategiyalarini shakllantirishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratish boshqa xo'jalik tadbirlari bilan bir qatorda mulkchilik munosabatlarida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida quyidagisi yaqqol namoyon bo'ldi: mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirmasdan turib, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida samarali faoliyat yuritish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Bundan tashqari, mulkchilik shakllari ko'p bo'lgan sharoitda investitsiya jarayonlarining qanday kechishini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya loyihalari, odatda, tashkiliy va ijtimoiy loyihalar shaklida davlat budjeti hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Boshqa turdagi investitsiya loyihalari uchun esa tijorat banklarining kredit resurslaridan foydalaniladi.

Bir tomondan, tijorat banklari barqaror iqtisodiy muhit mavjud bo'lishidan manfaatdordir, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan bank tizimining ishonchligi va samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, tijorat tuzilmasi hisoblangan alohida banklar, hatto risk ehtimoli mavjud bo'lgan holatlarda ham, maksimal foyda olish maqsadida harakat qiladi. Kredit muassasalari esa iqtisodiyotni investitsiyalashtirishda faqat qulay sharoitlar mavjud bo'lgandagina faol ishtirok etadilar.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va xususiy mulkchilikni himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy nazariya hamda amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Turli tadqiqotchilar investitsiyalar bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni har xil yondashuvlar orqali tahlil qilganlar. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari — Adam Smit va David Rikardo investitsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etgan. Ularning fikricha, kapitalni to'plash va uni samarali taqsimlash mamlakatning umumiy iqtisodiy farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Neoklassik iqtisodiy maktab tarafdorlari, xususan, Robert Solou o'zining iqtisodiy o'sish modelida kapital to'plami, mehnat va texnologik taraqqiyotni iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida baholaydi. Unga ko'ra, investitsiyalarning samaradorligi ularning taqsimlanish usuli hamda innovatsion faoliyat bilan qanday bog'liqligiga qarab belgilanadi [6].

Keynschilik yondashuvi tarafdorlari, jumladan, Jon Meynard Keyns investitsiyalarni rag'batlantirishda davlatning faol ishtirokini muhim deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, davlat investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni oshirishi va inqirozlardan chiqish imkoniyatini yaratishi mumkin [7].

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar investitsiyalarni jalb etish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish mexanizmlaridan foydalanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda investitsiya muhitining yaxshilanishi iqtisodiy barqarorlik hamda huquqiy kafolatlar bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi. Masalan, Jahon bankining "Biznes yuritish osonligi" (Doing Business) indeksida yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar, odatda, ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga muvaffaq bo'lmoqda.

Shu sababli, huquqiy islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash va infratuzilmaviy rivojlanish — investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Mahalliy olimlar orasida R. Toshkentov va Z. Murodova O'zbekistonda investitsiya muhitini tahlil qilib, huquqiy islohotlar va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining investorlar uchun ahamiyatini chuqur o'rganganlar. Ularning tadqiqotlarida, xususan, so'nggi yillarda qabul qilingan yangi investitsion qonunlar va xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar atroficha muhokama qilingan.

Shunday qilib, iqtisodiy nazariya hamda zamonaviy tadqiqotlar investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha turli yondashuvlarni taklif etadi. Barcha yondashuvlar investitsiyalarni rag'batlantirish, huquqiy kafolatlarni ta'minlash va barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Agar mamlakatda investitsiya muhitini so'nggi yillarda tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi so'nggi besh yilda deyarli 3,6 barobarga oshganini ko'rish mumkin. Xususan, 2025-yil yanvar–mart oylarida, 2024-yilning yanvar–mart oylariga nisbatan 3 162,2 mlrd so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, mamlakatimizda 16 007 ta chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan 4 043 tasi qo'shma, 11 964 tasi esa xorijiy korxona hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,6 %ga oshgan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ushbu korxonalar tarkibida eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar 1-jadvalda keltirilgan.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-may holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2024-yilning shu davriga nisbatan 13 taga ortgan. Ushbu o'sish, asosan, quyidagi tarmoqlarda kuzatilgan korxonalar sonining oshishi hisobiga yuzaga kelgan:

Savdo sohasi: korxonalar soni 150 tadan 164 taga yetgan (o'sish – 14 ta);

Axborot va aloqa sohasi: 17 tadan 22 taga (o'sish – 5 ta);

Tashish va saqlash sohasi: 14 tadan 22 taga (o'sish – 8 ta).

Ushbu raqamlar mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulay huquqiy va iqtisodiy muhit, shuningdek, strategik tarmoqlarda sarmoya jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan siyosat samaradorligini ko'rsatadi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Xitoy	3 880	605	3 275
Rossiya	3 051	905	2 146
Turkiya	1 964	486	1 478
Qozog'iston	1 114	270	844
Afg'oniston	677	82	595
Janubiy Koreya	665	181	484
BAA	352	123	229
Hindiston	320	83	237
AQSH	314	147	167

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2024-yilning shu davriga nisbatan 13 taga oshgan. Bu o'sish, asosan, quyidagi tarmoqlarda korxonalar sonining ortishi hisobiga yuzaga kelgan:



savdo sohasi bo'yicha korxonalar soni 150 tadan 164 taga yetgan (o'sish – 14 ta);
axborot va aloqa sohasida 17 tadan 22 taga (o'sish – 5 ta);
tashish va saqlash sohasida esa 14 tadan 22 taga ko'paygan (o'sish – 8 ta).
Ushbu dinamik o'sish xorijiy investorlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga, ayniqsa, xizmatlar sektoriga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Davlatlar	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Xitoy	152	50	102
Turkiya	102	35	67
Rossiya	94	39	55
Janubiy Korea	28	13	15
Tojikiston	20	4	16
AQSh	19	16	3
Afg'oniston	18	10	8
Hindiston	16	4	12
Germaniya	15	13	2
BAA	13	4	9
Ozarbayjon	12	6	6
Qozog'iston	12	4	8
Pokiston	8	1	7
Buyuk Britaniya	6	5	1
Yaponiya	4	4	-
Qirg'iz Respublikasi	3	-	3
Turkmaniston	3	2	1
Belorusiya	2	1	1
Boshqa davlatlar	71	43	28

Samarqand viloyati investitsiya muhitini tahlil qiladigan bo'lsak, viloyatda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2020-2025 yillardagi o'sish sur'atini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (o'sish sur'ati, % da)					
	2020	2021	2022	2023	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-mart
Samarqand viloyati	128,8	98,7	111,6	127,8	108,1	133,7
Samarqand sh.	137,1	67,7	107,6	110,0	150,1	68,6
Kattaqo'rg'on sh.	2,2 m.	92,9	69,6	91,0	2,3 m.	4,4 m
Tumanlar						
Oqdaryo	95,7	57,7	88,3	133,8	107,5	157,2
Bulung'ur	115,4	117,3	67,9	172,1	98,7	155,2
Jomboy	118,8	72,8	146,6	128,8	180,0	81,5
Ishtixon	69,3	195,1	33,2	166,0	128,0	143,3
Kattaqo'rg'on	127,0	117,6	3,6 m.	4,9 m.	22,2	131,6
Qo'shrabot	162,3	86,4	96,0	63,0	135,9	2,3 m
Narpay	145,7	95,9	103,0	139,2	125,8	2,1 m
Payariq	2,5 m.	2,5 m.	49,6	84,8	2,4 m.	102,3
Pastdarg'om	122,6	98,8	120,4	167,8	89,7	71,7
Paxtachi	144,3	95,0	52,0	159,2	151,6	2,1 m



Samarqand	164,1	185,1	162,5	65,2	77,7	187,1
Nurobod	110,5	129,6	2,1 m.	68,8	30,0 m.	9,5 m
Urgut	88,7	105,6	100,5	119,3	92,8	133,5
Toyloq	92,7	124,7	74,6	139,6	117,8	2,1 m

2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar yillar mobaynida o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar joriy narxlarda tumanlar kesimida quyidagicha izohlash mumkin.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (joriy narxlarda, mlrd so'm)						
	2020	2021	2022	2023	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-mart
Samarqand viloyati	14 656,4	15 641,6	18 917,1	25 717,1	29 652,5	10 437,2
Samarqand sh.	6 254,1	4 577,5	5 338,8	6 236,2	9 968,8	2 263,7
Kattaqo'rg'on sh.	396,1	397,9	300,4	292,4	703,6	274,6
Tumanlar						
Oqdaryo	643,2	401,3	383,9	549,2	629,5	237,1
Bulung'ur	426,0	540,2	397,5	730,4	769,4	309,4
Jomboy	519,6	409,2	650,2	893,5	1 716,3	415,6
Ishtixon	352,6	743,4	267,3	475,8	650,0	277,5
Kattaqo'rg'on	249,6	317,3	1 246,2	6 501,8	1 542,7	553,2
Qo'shrabot	960,8	897,1	933,3	630,6	915,7	333,0
Narpay	290,9	301,6	336,9	502,5	674,3	263,0
Payariq	472,1	1 270,6	682,7	619,4	1 556,6	733,3
Pastdarg'om	785,5	838,5	1 094,8	1 952,8	1 869,9	500,3
Paxtachi	430,1	441,9	249,2	426,0	689,4	273,4
Samarqand	1 165,4	2 331,6	4 107,2	2 843,8	2 356,6	892,8
Nurobod	457,3	640,6	1 447,3	1 062,0	3 416,6	2 433,6
Urgut	754,5	861,1	938,0	1 192,4	1 180,2	378,2
Toyloq	498,6	671,9	543,4	808,3	1 012,8	298,5

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti barqaror investitsion o'sishni namoyon etishda davom etmoqda. Bu esa kelgusi rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. 2025-yil 1-yanvar – 31-mart holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini qo'llab-quvvatlash maqsadida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 120,4 trillion so'm asosiy kapitalga investitsiya o'zlashtirildi. Bu 2024-yilning shu davriga nisbatan 107,9 foizni tashkil etdi. Mutlaq qiymatda investitsiyalarning o'sish hajmi 15,9 trillion so'mni tashkil etdi.

Besh yillik dinamika tahlili ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Xususan, 2020–2025-yillar oralig'ida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi deyarli 2,9 barobarga oshdi. Ayniqsa, 2024-yil ajralib turadi — ushbu yilda investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'ati – 143,9 foiz qayd etilgan. Taqqoslash uchun oldingi yillardagi ko'rsatkichlar quyidagicha:

2021-yil – 97,8 %

2022-yil – 115,2 %

2023-yil – 113,6 %

Moliyalashtirish manbalari tarkibi:

Markazlashtirilgan investitsiyalar (10,1 trillion so'm yoki umumiy hajmning 8,4 %):

Davlat budjeti mablag'lari – 2,96 trillion so'm (2,4 %)

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi – 157,3 mlrd so'm (0,1 %)



Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – 191,9 mlrd so'm (0,2 %), bu 14,9 mln AQSH dollariga teng
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 6,84 trillion so'm (5,7 %) yoki 527,9 mln AQSH dollari

Markazlashtirilmagan investitsiyalar (110,3 trillion so'm yoki umumiy hajmning 91,6 %):

Korxonalar mablag'lari – 20,5 trillion so'm (17,0 %)

Aholi mablag'lari – 8,4 trillion so'm (7,0 %)

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 78,6 trillion so'm (65,3 %) yoki 6,07 mlrd AQSH dollari

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 44,1 trillion so'mni (umumiy hajmning 36,6 %) tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **124,3 %**ga oshgan. AQSH dollarida bu ko'rsatkich 3,41 milliard dollarga yetib, **127,8 %**ga o'sgan.

Investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti (trln so'm/foiz):

Ishlab chiqarish sanoati – 33,1 (27,5 %)

Elektr, gaz, bug' va konditsioner ta'minoti – 20,0 (16,6 %)

Tog'-kon sanoati – 13,6 (11,3 %)

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,4 (10,3 %)

Uy-joy qurilishi – 9,5 (7,9 %)

Tashish va saqlash – 5,3 (4,4 %)

Ulgurji va chakana savdo – 3,0 (2,5 %)

Sog'liqni saqlash – 2,1 (1,7 %)

2024-yilga nisbatan o'zgarishlar:

Tog'-kon sanoatining ulushi: 14,1 % → 11,3 % (kamayish)

Qishloq xo'jaligi ulushi: 6,6 % → 10,3 % (o'sish)

2025-yil 1-choragida o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar:

Umumiy hajm – 8,7 mlrd AQSH dollari

Shundan asosiy kapitalga yo'naltirilgani – 6,6 mlrd AQSH dollari (yoki 85,4 trln so'm)

Xorijiy investitsiyalarning hududiy taqsimoti:

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qabul qiluvchilari (trln so'm):

Namangan – 7,49

Toshkent viloyati – 6,36

Toshkent shahri – 4,38

Navoiy – 3,70

Samarqand – 3,65

Kafolat ostidagi xorijiy kreditlar yetakchilari:

Qashqadaryo – 1,07

Toshkent shahri – 1,05

Buxoro – 971,7 mlrd so'm

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat bo'yicha taqsimoti:

Ishlab chiqarish – 32,2 %

Elektr va gaz – 22,7 %

Tog'-kon – 13,0 %

Qishloq xo'jaligi – 9,7 %

Qurilish – 5,0 %

Tashish va saqlash – 4,1 %

Axborot va aloqa – 1,0 %

Ko'chmas mulk – 0,6 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya – 1,7 %

Boshqa tarmoqlar – 10,0 %

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha yetakchi hududlar (trln so'm):

Toshkent shahri – 16,9

Toshkent viloyati – 16,1

Namangan – 12,4

Samarqand – 10,4

Buxoro – 8,8

Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari tarkibida farq seziladi. Masalan, Toshkent shahrida korxonalar mablag'lari 38,7 %ni tashkil etib, bu o'rtacha ko'rsatkichdan (17,0 %) ancha yuqoridir. Xorazm viloyatida aholi mablag'lari ulushi 14,4 % bo'lib, bu ham o'rtachadan (7,0 %) ikki baravar yuqoridir.

Uy-joy va infratuzilma investitsiyalari:



2025-yil 1-choragida 3 116,0 ming kv.m uy-joy foydalanishga topshirildi (116,8 %). Shundan 2 028,1 ming kv.m (65,1 %) qishloq hududlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha:

Toshkent viloyati – 523,7 ming kv.m

Farg'ona – 305,5 ming kv.m

Buxoro – 301,5 ming kv.m

Surxondaryo – 279,3 ming kv.m

Namangan – 260,1 ming kv.m

Suv ta'minoti – 10,4 km (83,7 % qishloqlarda), gaz tarmoqlari – 2,4 km (0,7 km qishloqlarda). Jizzax viloyati bu borada yetakchi hisoblanadi: suv tarmoqlari – 8,9 km, gaz tarmoqlari – 2,4 km.

2025-yilning birinchi choragida investitsiyalarning ijobiy dinamikasi O'zbekiston Respublikasining ham mahalliy, ham xorijiy investorlar uchun jozibadorligini saqlab qolayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 124,3 foizga o'sishi xalqaro investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchining ortganligini ifodalaydi.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalarning sezilarli darajada o'sishi (ya'ni umumiy tuzilmadagi ulushining 6,6 foizdan 10,3 foizgacha ortishi) agrar sektorni modernizatsiya qilishning yangi bosqichiga o'tilganidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish sanoatidagi investitsiyalar ulushining 27,5 foiz darajasida saqlanib qolishi iqtisodiyotning industrializatsiya va diversifikatsiya yo'nalishlarida izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bu holat O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlariga to'liq mos keladi.

Jadal sur'atlarda olib borilayotgan investitsiya faoliyati mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini mustahkamlabgina qolmay, balki aholining turmush darajasini oshirish uchun ham muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Investitsiyalarni jalb qilish hamda ularning samaradorligini oshirish mamlakat yoki alohida xo'jalik subyektlarining taraqqiyotida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

To'g'ri ishlab chiqilgan strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish va zamonaviy qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlardan foydalanish orqali investitsiya muhitini yaxshilash hamda investitsiya hajmini oshirish mumkin. Natijada esa iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va keng miqyosli rivojlanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Shuningdek, davlat siyosatini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, axborot almashinuvini tashkil etish, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek ijtimoiy va ekologik muammolarga e'tibor qaratish orqali investitsiyalarni samarali va barqaror jalb qilish imkoniyati kengayadi.

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy mazmuni va mohiyati ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish maqsadiga yo'naltirilgan. Qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari ko'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish, shuningdek bozor mexanizmlarini ijtimoiy maqsadlarda qo'llash uchun zaruriy huquqiy asoslarni yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy maydondagi mavqei va nufuzi izchil o'sib bormoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, undagi aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarning belgilab berilishi muhim natijalarga erishishga xizmat qilmoqda.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish — bu nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish vositasi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish kabi ko'plab dolzarb masalalarni hal qilish imkonini beradigan muhim vositadir.

Iqtisodiyotni zamonaviylashtirish sharoitida texnologik yechimlar, ilg'or ishlab chiqarish uslublari va sanoatni yangilash jarayonlari aynan investitsiya faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu esa aholining hayot sifati va iqtisodiy ishtirok darajasini oshirish bilan birga, mehnat bozorini takomillashtirishga, ya'ni sifatli ish kuchini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada, eski va og'ir mehnat shakllaridan samaradorligi yuqori va qulayroq ish faoliyatiga o'tish imkoniyati vujudga keladi.

Kelajakdagi iqtisodiy taraqqiyot darajasi aynan hozirgi bosqichda jalb qilinayotgan investitsiyalar va ularning amaliy natijalari orqali belgilab berilmoqda. Mamlakatda bozor islohotlarining hozirgi bosqichida investitsion siyosat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tarkibiy va sifat jihatidan tub o'zgarishlarni amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi, jumladan Samarqand viloyatida investitsion faoliyat so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmining yil sayin ortib borayotgani mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortib borayotgani xalqaro investorlar tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanib borayotganini anglatadi. Aholi mablag'larining sarmoya sifatida jalb qilinishi, shuningdek ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiya oqimining ko'payishi hududiy iqtisodiy taraqqiyotning izchil kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun bir qator asosiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- qulay va barqaror huquqiy muhitni shakllantirish;
- korruptsiyaga qarshi samarali kurash mexanizmlarini joriy etish;
- infratuzilmaning zamonaviy darajada rivojlanganligi;
- strategik rejalashtirish asosida investitsion faollikni rag'batlantirish;
- davlat tomonidan sodiq va izchil qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish.

Aynan shu omillar asosida investitsiyalar hajmini ko'paytirish va ularning iqtisodiyotdagi samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida muvozanatli rivojlanishni ta'minlash orqali mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini oshirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov R.J. *Investitsion faoliyatni hududlar kesimida rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Jo'raev D.M. *Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy omillar*. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 2021.
3. UNCTAD. *World Investment Report 2023*. – Geneva: United Nations, 2023.
4. Dunning J.H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions. // *Journal of International Business Studies*, 2001.
5. Krugman P. *Geography and Trade*. – Cambridge: MIT Press, 1991.
6. Solow R. A Contribution to the Theory of Economic Growth. // *Quarterly Journal of Economics*, 1956.
7. Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. *Investitsion muhit tahlili bo'yicha hisobot*. – Toshkent, 2024.
9. Jahon banki. *Doing Business 2020*. – Washington, DC: World Bank Group.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Asosiy kapitalga investitsiyalar: statistik to'plam, 2020–2025-yillar*. – Toshkent, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
